

YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHI SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNING AFZALLIKLARI VA ISTIQBOLLARI

Usmanov Tolib Orifovich, 2-kurs magistranti
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali
“Science Progress” NTM
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17063074>

Kirish. **Yashil iqtisodiyot tushunchasi va ahamiyati.** Yashil iqtisodiyot - bu tabiiy resurslarni tejash, ekologik barqarorlik va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish asosida shakllanayotgan iqtisodiy modeldir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyotga o'tish 2030-yilga kelib global yashillanish investitsiyalarini \$2.5 trillionga yetkazishi kutilmoqda¹. Asosiy tamoyillari qilib, tabiiy kapitalni himoya qilish (o'rmonlarni qayta tiklash, suv resurslarini tejash), toza energiyaga o'tish (quyosh, shamol energiyasidan foydalanish), barqaror ishlab chiqarish (chiqindilarni minimallashtirish)lar belgilangan².

An'anaviy savdoning ekologik ta'siri. An'anaviy savdo tizimi atrof-muhitga resurslar isrof bo'lishi va katta karbon izi qoldirish jihatlari bilan zarar yetkazmoqda. Har yili 380 million tonna plastik chiqindi hosil bo'lishi³, supermarketlarda mahsulotlarning 30% chiqindiga aylanishi⁴ resurslar isrof bo'lishi jihatidan zarar yetkazayotgan bo'lsa, savdo-sotiq binolari global energiya iste'molining 40% ini tashkil etishi⁵ va an'anaviy logistika global CO₂ chiqindilarining 25% ga sabab bo'lishi⁶ katta karbon izi qoldirish jihatidan Zarar yetkazmoqda.

Elektron tijorat - barqaror savdoning zamonaviy modeli. Elektron tijorat yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Fizik infratuzilmaga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishi (virtual

¹ United Nations Environment Programme (UNEP). Global E-waste Monitor 2023.

² World Economic Forum. (2022). The Future of Sustainable E-commerce in the Green Economy.

³ UNEP. (2023). Plastic Waste Management Report.

⁴ Food and Agriculture Organization (FAO). (2023). Food Waste Index Report.

⁵ International Energy Agency (IEA). (2023). Energy Consumption in Retail Sector.

⁶ McKinsey & Company. (2023). Logistics and Carbon Emissions.

do'konlar energiya sarfini 60% tejaydi)⁷, optimallashtirilgan logistika (AI yordamida marshrutlarni rejalashtirish gaz chiqindilarini 35% kamaytiradi), raqamli mahsulotlar (e-kitoblar yiliga 16 million daraxtni kesilishining oldini oladi)ni joriy etilishi electron tijoratning afzalligini ifodalaydi. E'tiborli jihat shundaki, elektron tijorat ham mutlaqo "toza" emas - tez yetkazib berish xizmatlari va e-chiqindilar (eski qurilmalar) yangi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda⁸.

Shunday qilib, zamonaviy dunyoda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlanayotgan elektron tijorat an'anaviy savdoga alternativa bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, uning ham ba'zi kamchiliklari mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun innovatsion yechimlar ishlab chiqilmoqda.

Elektron tijoratning yashil iqtisodiyotga qo'shgan hissasi. Elektron tijorat yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, bir qator jihatlarda ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ularga misol qiladigan bo'lsak, birinchidan, energiya tejash (virtual do'konlar an'anaviy savdo binolariga nisba-tan 60% kam energiya sarflaydi)⁹. Ikkinchidan, resurslardan samarali foydala-nish (raqamli mahsulotlar (e-kitoblar, onlayn kurslar) qog'oz va plastik iste'molini kamaytiradi. Uchinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish ("Yashil" brendlari elektron tijorat orqali ekologik toza mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega)¹⁰. Elektron tijoratning yashil iqtisodiyotga qo'shgan hissasi \$1.2 trillion atrofida baholanmoqda¹¹.

Elektron tijoratning atrof-muhitga ta'siri. An'anaviy savdoga qaragan-da elektron tijorat 35-40% kam karbon izi qoldiradi¹². AI asosidagi logistika optimallashtirish tizimlari esa transport chiqindilarini 20-25% kamaytiradi¹³. Transport va logistika sohasida elektr yuk mashinalari (masalan, Amazon'ning

⁷ Green Tech Media. (2023). Energy Efficiency in E-commerce.

⁸ Harvard Business Review. (2023). Challenges in Green E-commerce.

⁹ MIT Technology Review. (2022). AI in Logistics Optimization.

¹⁰ Amazon Sustainability Report. (2023). Green Branding Initiatives.

¹¹ UNCTAD. (2023). Digital Economy Report.

¹² McKinsey. (2023). Carbon Footprint Comparison.

¹³ Journal of Cleaner Production. (2023). AI in Supply Chain Management.

Rivian avtomobilari) CO₂ chiqin-dilarini 50% ga qisqartirdi¹⁴. Velokuryerlik (Yevropada 30% yetkazib berish velosipedlar orqali amalga oshiriladi)¹⁵. Qadoqlash materiallari va qog'oz sarfi bo'yicha Amazon "Frustration-Free Packaging" dasturi ortiqcha qadoqlashni 35% kamaytirgan bo'lsa¹⁶, raqamli fakturalar yiliga 4 million tonna qog'ozni tejashga yordam beradi¹⁷. Bularning barchasi atrof muhitda CO₂ chiqindilarini kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Elektron tijoratning ekologik xavfsizligi. Raqamli to'lovlar doirasidagi kontaktsiz to'lovlar (Apple Pay, Click) bankomatlarda qog'oz chek chiqarishni kamaytirib, yiliga 200 000 tonna qog'ozni tejash imkonini beradi. "Smart" yetkazib berish tizimida avtomatlashtirilgan omborlar (masalan, Amazon'ning robotlashtirilgan markazlari) energiya sarfini 30% kamaytirsa, dron yetkazib berish (Wing Aviation) an'anaviy transportga qaraganda 90% kam CO₂ chiqaradi.

Dunyo va O'zbekistondagi amaliy misollar. Amazon (AQSh) 2040-yilga kelib "Climate Pledge" dasturiga asosan karbon neytral kompaniyaga aylanishni maqsad qilgan. Undan tashqari, joriy yilda omborlarini 100% toza ya'ni quyosh energiyasi foydalanishni reja qilgan. Alibaba (Xitoy) o'zining "Green Logistics" loyihasiga asosan elektr yuk mashinalaridan va qayta ishlanadigan qadoqlash materiallaridan foydalanishni nazarda tutgan. Undan tashqari, ma'lumotlar markazlarida suv sovutish tizimining energiya sarfini 80% kamaytirgan. Uzum Market (O'zbekiston) kompaniyasi ham qayta ishlanadigan qadoqlash materiallaridan foydalanishni va optimallashtirilgan logistika tizmini ya'ni Toshkent bo'ylab eng qisqa marshrutlarni tanlash orqali mahsulotlarni berish punktlarini ko'paytirdi¹⁸. Express24 (O'zbekiston) kompaniyasi Toshkent shahrida ekologik xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun elektr skuterlardan foydalandi. Undan tashqari plastik qadoqlashni cheklash maqsadida bioqutulardan foydalanishga o'tdi¹⁹.

¹⁴ Rivian Automotive. (2023). *Electric Delivery Vehicles Impact Report*.

¹⁵ European Cycling Federation. (2023). *Last-Mile Delivery Statistics*.

¹⁶ Amazon. (2023). *Sustainable Packaging Program*.

¹⁷ Digital Payments Association. (2023). *Paperless Transactions Report*.

¹⁸ Uzum Market Sustainability Initiative. (2023). *Eco-friendly Packaging and Delivery Optimization*

¹⁹ Express24 Green Delivery Report. (2023). *Electric Vehicles and Last-Mile Sustainability in Tashkent*.

Yashil logistika va innovatsion texnologiyalar. E-fakтура yiliga 12 000 tonna qog‘oz va 48 000 tonna CO₂ tejash imkonini bergen bo’lsa, Dell kompaniyasi qadoqlashni optimallashtirish uchun 3D printerlar orqali mahsulotga mos qadoqlash ishlab chiqarishni yo’lga qo’ydi. Unga ko’ra mushukburun qutilar, qadoqlash hajmini 40% kamaytirdi. Walmart kompaniyasi esa “Aqlli ombor” texnologiyasini ishlab chiqdi. Unga ko’ra, robotlashtirilgan inventarizatsiya, energiya sarfini 25% kamaytirsa, Walmart omborlari 75% quyosh energiyasi bilan ishlaydi.

Xulosa va takliflar. Elektron tijorat zamonaviy yashil iqtisodiyotning asosiy tayanchlaridan biriga aylanmoqda. U atrof-muhitni muhofaza qilish bilan iqtisodiy o’sishni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. 2025-yilga kelib elektron tijorat yordamida 1 milliard tonna CO₂ chiqindisini kamaytirish rejalashtirilgan²⁰. Raqamli platforma-lar "yashil" brendlarni qo’llab-quvvatlab, ekologik toza mahsulotlarni ommalash-tirmoqda²¹. Misol uchun, Amazonning "Climate Pledge Friendly" dasturi 75 000 dan ortiq ekologik mahsulotlarni belgilaydi. Qolaversa, elektron tijorat KOBlar uchun barqaror ishlash imkoniyatlarini yaratmoqda. Birinchidan, virtual do‘konlar infratuzilma xarajatlarini 40-60% tejash imkonini beradi. Ikkinchidan, kichik korxonalar ekologik toza mahsulotlarni onlayn sotish orqali raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lishmoqda. Uchinchidan, ko‘pgina mamlakatlar yashil KOBlar uchun soliq imtiyozlari joriy qilmoqda.

O‘zbekiston misoldida ko’rsak, Uzum Market fermerlar uchun ekologik mahsulotlarni alohida belgilab, ularga sotish imkoniyatini bersa, Express24 elektr transportlari bilan Toshkent bo‘ylab "yashil" yetkazib berishni rivojlantirmoqda.

Kelajakda elektron tijorat yashil iqtisodiyotni qo’llab-quvvatlashning asosiy vositalaridan biriga aylanadi. Bu esa o’z navbatida, raqamli logistika tizimlari orqali transport chiqindilarini minimallashtiradi, AI optimallashtirish tizimlari energiya sarfini 25-30% kamaytiradi hamda Blockchain texnologiyalari yordamida mahsulotlarning ekologik tozaligi kuzatiladi.

²⁰ UNEP. (2023). *E-commerce and Climate Change*.

²¹ Nielsen. (2023). *Consumer Trends in Green Products*.

Kelajakda quyidagi yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratish zarur bo’ladi:

1. "Nol chiqindi" elektron tijorat platformalari (qayta ishlanadigan qadoqlash, kompostlanadigan materiallar);
2. Avtonom elektr transport tizimlari (dronlar, robots yetkazib berish);
3. Virtual va kengaytirilgan realitat (AR/VR) texnologiyalari (fizik namunalarsiz xarid qilish).

Yakuniy fikr o’laroq shuni aytish mumkinki, elektron tijorat nafaqat yashil iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi, balki barqaror kelajak qurishning asosiy vositasidir. Kichik biznesdan yirik korporatsiyalargacha barcha darajadagi ishtirokchilar ushbu o‘zgarishlarda faol rol o‘ynashi mumkin. O‘zbekiston ham raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyotni uyg‘unlashtirish yo‘lida muhim qadamlar qo‘ymoqda.

Yashil iqtisodiyot rivojlanishi sharoitida elektron tijoratga o’tishda birinchidan, KOBlar uchun "yashil elektron tijorat" dasturlarini ishlab chiqishni, ikkinchidan, Davlat tomonidan ekologik toza logistika uchun subsidiyalar joriy etishni, uchinchidan esa, iste’molchilarda ekologik ongni oshirish bo‘yicha ommaviy kampaniyalar tashkil etish takliflarni bildiraman.

Adabiyotlar:

1. United Nations Environment Programme (UNEP). (2023). *Global E-waste Monitor 2023*.
2. World Economic Forum. (2022). The Future of Sustainable E-commerce in the Green Economy.
3. UNEP. (2023). Plastic Waste Management Report.
4. Food and Agriculture Organization (FAO). (2023). Food Waste Index Report.
5. International Energy Agency (IEA). (2023). Energy Consumption in Retail Sector.
6. McKinsey & Company. (2023). Logistics and Carbon Emissions.
7. Green Tech Media. (2023). Energy Efficiency in E-commerce.
8. MIT Technology Review. (2022). AI in Logistics Optimization.
9. World Wildlife Fund (WWF). (2022). Digital Products and Deforestation.

10. Harvard Business Review. (2023). Challenges in Green E-commerce.
11. Amazon Sustainability Report. (2023). Green Branding Initiatives.
12. UNCTAD. (2023). Digital Economy Report.
13. McKinsey. (2023). Carbon Footprint Comparison.
14. Journal of Cleaner Production. (2023). AI in Supply Chain Management.
15. Rivian Automotive. (2023). Electric Delivery Vehicles Impact Report.
16. European Cycling Federation. (2023). Last-Mile Delivery Statistics.
17. Amazon. (2023). Sustainable Packaging Program.
18. Digital Payments Association. (2023). Paperless Transactions Report.
19. UNEP. (2023). E-commerce and Climate Change.
20. Nielsen. (2023). Consumer Trends in Green Products.
21. Uzum Market Sustainability Initiative. (2023). Eco-friendly Packaging and Delivery Optimization.
- 22 Express24 Green Delivery Report. (2023). Electric Vehicles and Last-Mile Sustainability in Tashkent.
23. O‘zbekiston Respublikasi Iqdisodiyot vazirligi. (2023). Yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya dasturlari.